O'TKIR HOSHIMOVNING QISSASIDAGI METAFORIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Filologiya fanlari doktori, professor D. To'rayev

ANNOTATSIYA: Maqolada ardoqli adib O'tkir Hoshimovning "Qalbingga quloq sol" qissasida metaforik birliklarning qo'llanishi va ularning leksik-semantik mohiyati misollar yordamida tahlil qilindi. Badiiy asarda qo'llanilgan metaforik tuzilmalarni o'rganishda bir asar doirasidagi leksik qurilmalar miqdorini aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik tarafdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: qissa, kognitiv jarayon, metafora, ko'chma ma'no, obrazlilik, o'xshatish, umumiy ma'no, ko'p ma'nolilik, semantik mexanizm.

АННОТАЦИЯ: В статье на примерах анализируется использование метафорических единиц и их лексико-семантическая сущность в рассказе «Слушай своё сердце» заслуженного писателя Откира Гошимова. В изучении метафорических структур, используемых в произведении искусства, определение количества лексических средств в произведении и их классификация по характерным особенностям, описание с структурно-семантической точки зрения и исследование их функции в тексте относятся к требованиям лингвопоэтического анализа.

Ключевые слова: рассказ, познавательный процесс, метафора, образное значение, сравнение, общее значение, полисемия, семантический механизм.

ANNOTATION: The article analyzes the use of metaphorical units and their lexical-semantic essence in the story "Listen to Your Heart" by the honored writer Otkir Hoshimov using examples. In the study of metaphorical structures used in a work of art, determining the number of lexical devices within a work and classifying them according to their characteristic features, describing them from a structural-

semantic perspective, and examining their function in the text are among the requirements of linguopoetic analysis.

Keywords: story, cognitive process, metaphor, figurative meaning, simile, general meaning, polysemy, semantic mechanism

Yozuvchining hech kimga nasib qilmaydigan baxti bor. Bu – bir varoq oq qog‘ozga dardini to‘kib solish baxtidir. Mustaqillik sharofati bilan ko‘pgina sohalarda jadal siljishlar va yangiliklar bo‘lganligi sir emas. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasi, ta’limi borasidagi masalalarga siyosat darajasida qarash, til va adabiyotga nisbatan qadriyatni to‘laqonli shakllantirish tadbirlari keng miqyosda tashkil etilganligi e’tiborga molik masaladir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidi bilan aytganda, “ Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi,bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz,degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”. Tarbiya masalasi azal-azaldan xalqimiz orasida muhim jihat sanalganini o‘zbek adabiyoti xazinasidagi qissa janrida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Bu struktura, ayniqsa, til qonuniyatlari bilan bog‘liq ekan, qissalardagi turli birliklarni vaziyatlar misolida tahlil qilish o‘rinlidir.

Badiiy asarda qo‘llanilgan metaforik tuzilmalarni o‘rganishda bir asar doirasidagi leksik qurilmalar miqdorini aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik tarafdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi. Ana shunday tahlilda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon bo‘ladi.

Ma'lum asardagi metafora va ko'chma ma'nodagi kompozitsiyani tahlil qilish jarayonida adibning ifoda etmoqchi bo'lgan badiiy maqsadi bir qadar oydinlashadi. Jumladan, obrazlilik keng qamrovga va nozik talqinga ega bo'lgan tushuncha sanalgani uchun ham, ayniqsa, metaforik birliklarning leksik-semantik tahlili g'oyatda aniqlilikni talab etadi.

Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi sifatida ham qo'llaniladi. Bunda bir leksema ma'no ko'chishi asosida bir necha predmetlarni nomlab keladi. Omonimdan farqli ravishda ko'chimda yangi ma'no hosil qiluvchi so'zning o'z va ko'chma ma'nosi o'rtasida muayyan ma'noda bog'liqlik mavjud bo'ladi. "Metafora" atamasi ilk bor Izokrat tomonidan "Evagorus" asarida qo'llangan. Ko'chimning bu turi ikki narsa yoki hodisa o'rtasidagi har qanday jihatdan o'xshashlikka asoslanadi. Metaforik ma'nolar insonning tashqi ko'rinishiga, jismoniy va ruhiy holatiga, tana a'zolari harakatiga, hayot bosqichlariga, kiyim-kechaklari va ularning qismlariga asosan yuzaga kelishi mumkin. Ingliz olimi E. Ortoni kundalik hayotda metaforadan foydalanishning quyidagi uch asosiy sababini ko'rsatgan: Ular bizga qisqacha gapirishga yordam beradi. Ular bizning nutqimizni yorqin qiladi.

Ular ifodalab bo'lmaydigan narsani ifodalashga imkon beradi. Arastu ham metafora atamasini keng ma'noda qo'llagan holatda o'zining "Ritorika" asarida quyidagicha fikr bilan isbotlaydi. "Metafora" yuksak darajada aniqlik, yoqimlilik va ohorlilik jozibasiga ega, undan o'rinli foydalanish nutqni bezaydi. Metafora ko'p hollarda inson tana a'zolari bilan bog'liq tarzda qandaydir ma'nolarni izohlash uchun xizmat qiladi. Ko'chimning bu turi badiiy asar uchun nihoyatda muhim ahamiyatga egaligini va nutqda ifodalilikni yuzaga keltirishini insonning kognitiv jarayonida yanada aniqroq ko'rish mumkin. Kognitiv jarayon – bu insonning ongida sodir bo'ladigan bilish ko'nikmasi bo'lib, bu orqali inson atrof-muhitni, voqea-hodisalarni, ayniqsa, metafora birliklari asosida osonroq anglaydi, yaxshiroq his eta oladi.

Xususan, atoqli adib O‘tkir Hoshimovning “Qalbingga quloq sol” qissasining metaforik fondini tahlil qilganda, butun asar tizimida uchragan turli ko‘chma ma’nodagi birliklarning voqealar tizimiga qanchalik mos tushganiga guvoh bo‘lamiz. Qissada hech bir metafora noo‘rin kelmasdan, asar syujeti bo‘ylab nihoyatda rang-baranglikni hosil qilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, mazkur asar kontekstida ko‘chim, ko‘p ma’nolilik va obrazlar tizimi semantik mexanizm doirasida o‘zaro uyg‘unlikni aks ettirgan. Har bir metafora kitobxonni bevosita fikrlashga, tasavvur qilishga, tafakkur etishga hamda hamdardlik tuyg‘ularini o‘zida shakllantirishga xizmat qilgan.

“Qish keldi. Kechagina bemorning ingrashidek hazin kuz sadolariga to‘lgan bog‘lar bugun jimib qoldi. Xazon shitirlamaydi, yalang‘och shoxlarga arg‘amchi osgan mezonlar chayqalmaydi…”1 Ushbu parchani oladigan bo‘lsak, tasviriy va emotsional bo‘yoqqa boy jihatlarini ko‘rish mumkin. Bunda metafora turi, ya’ni taqqoslovchi ko‘chim o‘xshatish asosida kuchli obraz yaratgan.

Leksik birliklar: “ bemorning ingrashi” – odatda og‘riq, iztirob, charchoq holatini bildiradi. “ kuz sadolari “ – kuzning tovushlari, tabiatdagi o‘zgarishlar (shamol, shitirlagan barglar)

Semantik mohiyat: Kuz tasviri “ bemorning ingrashi “ ga o‘xshatilgani bilan kuzning g‘amgin, majolsiz, so‘nib borayotgan holati ifodalanadi. Bu yerda: Kuz – so‘nayotgan, charchagan mavjudot. Sadolar – iztirobga o‘xshash tovushlar. “Bog‘lar jimib qoldi”.

Metafora turi: Jonlantirish (personifikatsiya)

Leksik birliklar: Bog‘lar – jonli bo‘lmagan, tabiatda uchratishimiz mumkin bo‘lgan va turli daraxtlar, gullar bilan o‘ralgan obyekt. Jimib qolmoq – insonga xos bo‘lgan, insonning tinchlikdagi holati.

1 Hoshimov O‘tkir. H 71 Qalbingga quloq sol. [Matn] : qissa va hikoya / O‘. Hoshimov; - T.: “ Nurli dunyo” nashriyot uyi, 2024. – B.160.

Semantik mohiyat: Bog‘ning “jimib qolishi” orqali yuzaga kelgan, ya’ni tabiatning sokinlashuvi, kuz faslidan so‘ng qish fasliga o‘tish davridagi tovushsiz va ta’sirli bir holat tasvirlangan. Go‘yoki bog‘lar inson kabi ovoz chiqara turib, qandaydir hazin va mungli holatdan so‘ng to‘satdan sukutga cho‘mganidek. “Yalang‘och shoxlarga arg‘amchi osgan mezonlar chayqalmaydi”.

Metafora turi: Jonlantirish – jonsiz predmatlarga xos tasvir.

Leksik birliklar: Mezon – bu xalq tilida ham, ilmiy tilda ham “o‘lchov va tarozi” degan ma’noda keladi. Arg‘amchi osgan – bunda o‘ziga xos metaforik ulug‘lash sifati mavjud. Mezonlar odatda ingichka ip kabi daraxtlarning shoxlarida osilib turadi. Chayqalmaslik – harakatsiz holat.

Semantik mohiyat: Shamolning to‘xtashi, tabiatning tinchligi, qishning sokin, qo‘zg‘almas muhiti tasviri orqali mezonlarning kuchsiz shamolda ham tebranmasdan jim turishi, bunda esa sovuq va sokin qishning kirib kelganini anglash mumkin. “Ko‘chalarda ilk bahor o‘ynar, derazalarda shafaq yonar, olchalar shoxida jonsarak chumchuqlar chirqillashar, ammo Dilfuza bularning hech qaysisiga e’tibor bermas, o‘z dardi o‘ziga yetib ortar edi”.

Ushbu parchada metaforik birliklarning leksik-semantik tahlili quyidagicha talqin etiladi.

Qadrdon yozuvchimiz O‘tkir Hoshimovning “Qalbingga quloq sol” qissasida bu kabi metaforik birliklar yetarlicha qo‘llanilgani va voqealar rivojiga salmoqli ta’sir ko‘rsatgani asarning yanada o‘qishli bo‘lishi uchun xizmat qiladi. Metaforik shakllarning leksik-semantik tahlili esa qissada aytilmoqchi bo‘lgan haqiqatni, obrazlar dunyosini, fikrlar mohiyatini badiiy va ilmiy isbot etishga keraklicha asos bo‘la olishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

1. Badiiy matnning lisoniy tahlili: Metodik qo‘llanma / M. Yo‘ldoshev, Z. Isaqov, Sh. Haydarov: mas’ul muharrir N. M. Mahmudov. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. –B. 112.

2. Hoshimov O‘tkir.Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.: Sharq, 2012.-B. 223.

3. Hoshimov O'tkir. H 71 Qalbingga quloq sol. [Matn] : qissa va hikoya / O'. Hoshimov; - T.: "Nurli dunyo " nashriyot uyi, 2024. – B. 160.

4. Ortoni E. Assimilyatsiya va metaforada o'xshashlikning roli // Metafora nazariyasi / Otv. ed. N. D.Arutyunov. – M.: Progress, 1990. – B. 215.

5. "Shavkat Mirziyoyev" ning hikmatlar sahifasi. Hikmatlar . uz https: // hikmatlar.uz